

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

Tong Yulduzi

2013-yil 22-iyul
N:29 (66934)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

BOQDI OY KO'KDAN TURIB, HAYRON SAMARQAND NONIGA

Sochdi yoz ne'matlarin olamni dasturxoniga,
Boqdi Oy ko'kdan turib, hayron Samarqand noniga.

To'ldi xirmonlar bu kun avjida mehnat pallasi,
Yetti million tonnadan oshganda yurtim g'allasi.

Yoz yozib ketgay dalam domoniga imkonini,
Bizga hadya aylabon hurlikni qaynoq nonini.

Hosilin ko'z-ko'z etib, bog'lar chiqar peshvozimiz,
Dilni xushnud aylagay do'stlar kuyunchak yozimiz.

Paxtazorlar gulga kirdi kaftda oq oltin olib,
Otlanarman bepoyon dasht-u dalamga yolvorib.

O'zbekiston, validamdek bag'ri keng, cheksiz diyor,
Gardlaringni ko'zlarimga surtayin mastonavor.

Ey, saxovatpesha yurtim, beqiyos tengsiz chaman,
Sarbaland Axtamquli o'g'ling bo'lib kuylay, Vatan!

AXTAMQULI

To'yga munosib to'yona hozirlash
xalqimizga xos fazilat. Istiqlol bayrami
arafasida yurtimizda amalga
oshirilayotgan keng ko'lamil
bunyodkorlik ishlarini ana shu tantana
taraddudiga qiyoslash mumkin.

2-bet



OBOD MAHALLAM MENING

(Boshi 1-betda)

Yaqinda poytaxtimizning Ko'kcha dahasidagi «Oqlon» mahallasida qad rostlagan «Oqlon» sport majmuasi mahalla ahliga bayram tuhfasini bo'ldi. Mahalla faollari hamda homiylar tomonidan barpo etilgan mazkur maydoncha kekxa-yu yoshni o'z bag'riga chorlamoqda. Ayniqsa, bolajonlarga juda manzur bo'lmoqda. Yaqin kunlarda futbol ishqibozlari uchun sport to'garagi ham tashkil etish rejalashtirilyapti. Maydonchada bog' barpo qilish maqsadida ekilgan nihollar ko'kka bo'y cho'zmoqda. Dam oluvchilarga orom bag'ishlash niyatida qurilayotgan favvoralar ham



ZUBAYDA olgan surat

hademay barchaga zavq-u shavq ulashsa, ajabmas.

Nuroniylar otaxon-u onaxonlarning qo'li duoda: mahallaning yanada obod bo'lishiga hissa qo'shgan kekxa-yu yoshning madaniy hordiq chiqarishiga sharoit yaratib bergan serhimmat insonlar omon bo'lishsin!

Nigora ABDUNAZAROVA

Turli rangdagi to'tiqushlarning bir daraxtga jamlanganini ko'rganmisiz? Yoki yollari chiroyli o'rilgan tulporni yonginasidan tomosha qilganmisiz? Azim tog'lar ortidan ona yerga mo'ralayotgan bobo quyoshni erta tongda hech kuzatganmisiz? Bular mo'jizaning o'zginasi-ku, demoqchimisiz? Iqtidorli tengdoshingiz Yunusobod tumanidagi 86-maktabning 4-sinf o'quvchisi Komila Soatova mo'yqalam orqali ana shunday mo'jizalar yaratadi.


JONSIZ TABLATNING JONLI TASVIRI

Kuni kecha «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasining Konferens zalida yosh mo'yqalam ustasining rasmlar ko'rgazmasi tashkil etildi.

«Yangi avlod – 2012» bolalar ijodiyot festivalida qatnashib, «Faxriy yorliq» bilan taqdirlangan Komila o'z ustida tinmay ishlaydi. Uning natyurmort, peyzaj, kompyuter grafikasi janrlarida ishlangan asarlarida ona Vatanga, tabiatga bo'lgan mehrini tuyasiz. Ko'rgazma qo'yilgan suratlarini «Mehribonlik», «Muruvvat» uylari tarbiyalanuvchilari hamda litsey, kollej va maktab o'quvchilari katta qiziqish bilan tomosha qilishmoqda. Kelajakda yetuk rassom va dizayner bo'lishni maqsad qilgan Komilaga ijodiy parvozlar tilaymiz.

Mustaqil yurtimizda shaxdam odimlayotgan iqtidorli yoshlarimiz safi kengayaversin.

O'z muxbirimiz



A. HAMIDULLAYEV olgan surat



OLMOS olgan surat

Samarqand tumanidagi 14-umumta'lim maktab o'quvchilari «Bir tilni bilgan bir inson, ikki tilni bilgan ikki inson» maqoliga amal qilib, til o'rganishga alohida e'tibor qaratishgan.

TIL BILGAN – EL BILADI

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalarida sezilarli rivojlanish va taraqqiyot ko'zga tashlanmoqda. Xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish yanada rivojlandi. Madaniyat, ilm-fan, san'at va sport sohalarida yuksak yutuqlarga erishmoqdamiz. Ayniqsa, ertaning egalari bo'lgan biz yoshlarga berilayotgan yuksak e'tibor kelajagi porloq yurt barpo etishda mustahkam poydevor va omil bo'lmoqda.

Xalqimizda «Til bilgan – el biladi» degan hikmat bor. Turli xalqlar tilini bilish, ularning madaniyati, hayot tarzi bilan tanishish, do'stona aloqalar o'rnatish uchun chet tillarini bilish juda muhim. Shu maqsadda yurtimizda ingliz tilini o'rganishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi paytda dunyo tiliga aylanib borayotgan ingliz tilini biz ham qiziqib o'rganmoqdamiz. Buning uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bunga bir misol qilib, Qo'qon shahridagi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati majmuasini olishimiz mumkin. Yoshlarning iste'dod-u iqtidorini namoyon etishlariga ko'maklashuvchi ushbu majmu'a nemis, ingliz, fransuz, xitoy va rus tillarini o'rgatishga mo'ljallangan. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishimiz darkor. O'zbekistonimizning dunyo hamjamiyatidagi o'rini yanada yuksaltirish biz yoshlarning burchimiz bo'lib, o'qish, izlanish orqali o'z burchimizni bajaraylik.

Muzayyana YO'LDOSHEVA,
Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi
33-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

BO'LAJAK BASTAKOR

Yurtimizda san'atsevar o'g'il-qizlar safi tobora ortib borayotgani quvonarlidir. Ulardan biri Abbas Raimaliyev R.Glier nomidagi respublika musiqa va san'at maktabida violonchel yo'nalishida tahsil oladi.

Abbos bolaligidan musiqaga mehr qo'rgan. Hozirda u ustozlari – professor Jahongir Ibragimov va Dilya Shamilovnadan violonchel hamda pianino chalish sirlarini puxta o'rganib kelmoqda. U maktabda o'tkaziladigan tanlovlarda yorqin iste'dodini namoyon etib, barchaning olqishiga sazovor bo'lyapti.

Kelgusida yetuk bastakor bo'lishni maqsad qilgan Abbas ayni paytda Fransiyada har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan «Nikolay Rubinshteyn» nomli xalqaro tanloviga hozirlik ko'rmoqda.

Iste'dodli tengdoshingizga omad tilab qolamiz.

Yulduzoy O'RMONOVA



Vatan! Shu besh harfdan iborat so'z zamirida chashma suvidek musaffolik, Elbrus cho'qqisidek buyuklik mujassam. Har bir g'ishti tildodiy osmono'par minoralarindan so'ylaymi, dovrug'i yetti iqlimga ketgan bobokalonlarimni aytaymi?! Vatan, sen buyuksan, sajdagoh kabi muqaddassan.

ONA KABI YAGONADIR

Yurtimiz chindan ham o'tmishi buyuk, kelajagi porloq o'lka. Buyuk bobokalonlarimizning nomlari tarix zarvaraqlarida oltin harflar bilan bitilgan, ularni dunyo tan olgan. Sohobqiron bobomiz Amir Temur, tabobatimizning bilimdoni Ibn Sino, she'riyat sultoni Alisher Navoiy, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur singari zotlarga beshik bo'lgan elning kelajagi biz yoshlar qo'lida ekan, bobolarimizga munosib voris bo'lishga harakat qilamiz.

*Bobolar kalomi dilimda doim,
Sen uchun yuragim qo'limga doim.
Sog'inaman yurgan yo'limga doim,
Vatan, yagonasan, tilimda doim.*

Shahribonu HALIMOVA,
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi
28-maktab o'quvchisi



Vatan deganda, biz yashayotgan qishloq, mahalla, shahrimiz tushuniladi. Vatan, avvalo, oilalarimizdan boshlanadi. Men oilani bir butun daraxtga o'xshataman. Ota daraxtning ildizi bo'lsa, ona uning tanasi, farzandlar esa mevasi. Daraxtning ildizlari mustahkam bo'lishi uchun mehr kerak. Mehr bor joyda esa ahillik bor, obodlik bor.

OBODLIK BOR JOYDA...

Har bir inson go'zallikni, sarishtalikni, ozodalikni yaxshi ko'radi. Hovlisiga, ko'chasi-yu mahallasiga daraxtlar, gullar ekadi, shu tariqa yurtini obod qilish payida bo'ladi. Ona tabiatimiz ko'rkiga ko'rk qo'shadi. Zotan, biz ham go'zal tabiatning ajralmas bir bo'lagimiz, salomatligimiz ham tabiat bilan bog'liq. Shunday ekan, ona yurtimizni yanada obod qilish har birimizning ezgu maqsadimiz bo'lishi kerak.

Sog'lom insonning fikrlari ham sog'lom bo'ladi. Biz yoshlar bilimli, mustahkam irodali, yuksak ma'naviyatli inson bo'lsak, Vatan ravnaqiga har birimiz hissa qo'shsak, deyman.

Ayjamal KARAMATDINOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumanidagi
11-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

Ikki do'st – Rustamjon bilan Qahhorjon goh shirin suhbatlashib, goh tortishib maktabga ketishyapti. Biri qarshilaridan qora mushuk o'tib qoldi.

– To'xta, – dedi Rustamjon do'stiga, – endi oldinga yurib bo'lmaydi. Orqaga yetti qadam tashlab, keyin yo'limizni davom ettirishimiz kerak.

– Ey, qo'ysang-chi bu irim-sirimlaringni, undan ko'ra tezroq yur, darsga kech qolamiz, – dedi Qahhorjon.

– Sen bilganingni qil, lekin men biror falokat yuz bermasligi uchun ortimga yetti qadam qaytaman, – dedi Rustamjon qat'iyat bilan.

Lekin dars mobaynida ham do'stining ishonch bilan aytdan gaplari xayolidan ketmadi.

Aslida Qahhorjon bunday irim-sirimlarga ishonmasdi. Maktabdan qaytgach, so'rida uzumlarni

QARI BILGANNI!



xomtok qilayotgan bobosidan asta so'radi:

– Bobojon, oldidan qora mushuk chiqib qolsa, orqaga yetti qadam tashlab, keyin yurish kerakmi?

– Ha bolam-a, kitob, gazeta-jurnal o'qimaganing uchun ham mana shunday gaplarga ishonib yuribsan. Kimki ko'p kitob o'qimasa, mustaqil fikri bo'lmaydi.

Do'stingga aytib qo'y, avvalo, har bir inson yaxshi niyat qilishi kerak. Niyating pok va beg'ubor bo'lsa, albatta, orzularing ijobat bo'ladi,

– dedi bobo nabirasining boshini silab.

Gulchehraxon ABDUAZIZOVA,
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi
33-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

Men jurnalistlik kasbini tanladim. Tanlagan soham ancha murakkab, tinim bilmay o'qish va izlanishni talab qiladi.

Buyuk allomamiz Ibn Sino aytganidek, kishi qanchalik ilm olishga intilsa, uning bilmaganlari shunchalik ko'payib boraverar ekan. Ilm olayotgan kishi bu ummonning tubsiz ekanligiga amin bo'ladi, bilim olgani sayin shu paytgacha o'rganganlari o'rganmaganlari oldida hech narsa emasligidan hayratga tushaveradi. Menda ham shunday holat bo'ladi.

Umumta'lim maktabida o'qib yurgan kezarimda badiiy ijodga havas uyg'ondi. Buyuk bobokalonimiz Navoiy, Bobur, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy ijodi meni o'ziga rom etdi. Toki ilhom meni sirlil jilvalariga rom etaverar ekan, hamisha xalq diliga hamohang tuyg'ularni kuylashga, elning dardini, quvonch va tashvishlarini kuylashga harakat qilaman.

Intizor NEGBOYEVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani

BILIM - TUBSIL UMMON



Bizga maktub yo'llabsiz...

BEFARQLIK BIZLARGA YOT

Salom, sevimli gazetam! Men Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi 37-umumta'lim maktabining 8-sinfida yakka tartibda uyda tahsil olaman. Bolalikdan nogironman. Men ham boshqa tengdoshlarim singari biror hunarni puxta egallab, Vatanimning gullab-yashnashiga, ravnaqiga hissa qo'shsam, deyman. Bu yo'lda o'qib-o'rganishdan, izlanishdan charchamayman.

G'iyosbek JO'RABOYEV

Tahririyatdan:

G'iyosbekning maktubi bizni to'liqlantirib yubordi. To'rt munchasi sog'lom bo'la turib, oltinga teng yoshlik davrini kompyuter o'yinlari-yu qo'l telefoniga termilib, behuda o'tkazayotgan ayrim o'g'il-qizlarimizga G'iyosbekdagi g'ayratni, shijoatni ibrat qilgimiz keldi. Uning maktubini imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiyasiga mas'ul tashkilot vakillari, qolaversa, namanganlik qo'li gul usta-hunarmandlarimiz ham o'qib, o'qiyman, hunar o'rganaman, deya yotgan intiluvchan o'spiring yordam qo'lini cho'zadilar, degan umiddamiz. Zero, yurtimizda ota-bobolarimizdan meros «usta – shogird» an'analarini davom ettirib kelayotgan, yordamga muhtoj insonlar taqdiriga befarq bo'lgan saxovatpesha hamyurtlarimiz ko'pligiga shubhamiz yo'q. Shunday ekan, G'iyosbekka yordam qo'limizni cho'zaylik.



Shunday mamlakat ham bor ekanmi, deya ajablanyapsizmi? Ishonavering, bunday mamlakat bor! Toshkent viloyati, Bo'stonlik tumanidagi Yusufxona qishlog'ida joylashgan «Yoshlik» oromgohiga borsangiz, bunga o'zingiz amin bo'lasiz. Bekobod shahridagi OAJ «O'zmetkombinat» korxonasi tomonidan qurilgan 17,5 gektar maydonni egallagan mazkur oromgohga kirsangiz, o'zingizni ertaklarning sirli olamiga tushib qolganek his qilaysiz. Akvopark, 3 ta suzish havzasi, sport zali va maydonchalari, tennis, trenajor zallari, kutubxona bolajonlar ixtiyorida. Mo'jaza hayvonot bog'i yosh tabiat shaydolarining eng sevimli joyi sanaladi. Taniqli bolalar adiblari bilan ijodiy uchrashuvlar, tavallud ayyomlariga bag'ishlangan kechalar, tabiat qo'ynidagi sayr-u sayohatlar, sport musobaqalari, kitobxonlar bellashuvlari bolajonlarning ta'til kunlariga mazmun bag'ishlamogda.

MO'JIZALAR MAMLAKATI



qo'llari bilan ikkita ertak maydonchasi barpo etdi. Uning atrofini esa dengiz jonivorlari — delfinlar, baliqlar, meduzalar tasviri bilan bezatishdi. E'tiborlisi, bolajonlar, asosan, chiqindilardan — mashinalarning yaroqsiz disk va g'ildiraklari qoplamlari, toshlar, ichimlikdan bo'shagan yelim idishlarning qopqoqlaridan foydalanishyapti. Ular qo'li bilan yasalgan Xo'ja Nasriddinning aravasi qovun-tarvuzlarni ko'rib, ishtahangiz ochilib ketishi aniq. Biroq, ularni so'yib yeyishga oshiqmang... Qo'li bilan ushlab ko'rmaguncha bu poliz mahsulotlarining qog'ozdan yasalganiga ishingingiz kelmaydi. Toshlardan yasalgan sharsharani hamda oromgohning yer osti omborxonasini

qo'riqlab turgan Yalmog'iz kampingning xitoy chiroqlari, yelim idishlardan yasalgan gullar bilan bezatilgan kattagina bog'i ham bor ekan. Gulzorni payhon qilib, gullarni uza ko'rmang, Yalmog'izning jahli chiqadi. Bu go'zallikdan bahramand bo'lib, zavq oling! Tarbiyachi Nargiza Xalilova amalga oshirayotgan ishlar ham ibratga loyiq. Uning tashabbusi bilan tasviriy san'at idosmandlari kattakon xarsanglarda yurtimizdagi tarixiy yodgorliklar, tabiat manzaralari, sharq miniatyura namunalarini aks ettirishyapti. Bu betakror manzaralarni tomosha qilar ekansiz, osmon ostidagi ochiq muzeyda yurgandek his etasiz o'zingizni.

Ayting-chi, yer yuzining eng sovuq o'lkalarida yashovchi pingvinlarning yoz chillasida sayrga chiqqanini hech ko'rganmisiz? Niyat Musayev va Lidiya Yefremovnaning bolajonlar ko'magida yasagan pingvinlari oromgoh hovlisida jonli sayr qilib yurgandek taassurot qoldiradi, kishida. Shuningdek, bu g'aroyib «mamlakat»da ofis Afrikadan «mehmon» bo'lib kelgan jirafa, zebra va timsohlarni, go'zal oqqushlar va g'ozlarni ham uchratasiz. Ular Hakimboy Temirovning mohir qo'llari bilan yasalgan...

— Afsuski, mavsum oxirlab boryapti-da. Lekin keyingi mavsumga keladigan tengdoshlarimiz bundan-da ajoyib-u g'aroyib g'oyalari bilan oromgohimizni yanada obod qilishlariga aminmiz, — deya o'zlariga tasalli berishyapti dam oluvchilar. Shunday bo'lishiga biz ham ishonamiz. Chunki bu maskanda mehnat qilayotgan yetakchidan tortib, oromgoh boshlig'igacha izlanuvchan, yangilikka intiluvchan, tinib-tinchimas ijodkor ekanliklariga amin bo'ldik. «Yoshlik»da miriqib hordiq chiqqan o'g'il-qizlar esa inson boy tasavvurini ishga solsa, uning qo'li mo'jizalar yaratishga qodirligini anglab, ustozlaridan o'rganganlarini do'stlariga, uka va singillariga ham o'rgatishsa, ajabmas.

Feruz JALILOVA



IJODIY UCHRASHUV

O'quvchilarning yozgi ta'tilni maroqli o'tkazishlarini ta'minlash maqsadida tumanimizdagi 11 ta umumta'lim maktablari qoshida yozgi sog'lomlashtirish oromgohlari tashkil etilgan.

Jumladan, bizning 1-anii va ijtimoiy fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab-internatimizda tashkil qilingan «Barkamol avlod» kunduzgi sog'lomlashtirish oromgohi ham tumanimizdagi kam ta'minlangan oilalar farzandlaridan 100 nafarini o'z bag'riga oldi. Oromgoh qoshida ingliz va rus tili, futbol, shaxmat, shaxsha hamda tennis kabi to'garaklar tashkil etilgan.

Kuni kecha bu yerda tumanimizdagi 20-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabining bir guruh o'quvchilari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirga musiqa va san'at maktabi qoshidagi turli to'garaklarga qatnashayotgan o'g'il-qizlar o'z ijod namunalarini tashrif buyurdilar. Xalq amaliy san'ati, tasviriy san'at, haykaltaroshlik yo'nalishlaridagi ijodiy ishlar, ayniqsa, o'zbek xalq ertaklari asosida ishlangan

ishlari tengdoshlarida katta qiziqish uyg'otdi. Maktabning teatr sinfi tomonidan namoyish etilgan G'afur G'ulomning «Shum bola» asari asosidagi sahna ko'rinishi barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi. «Orasta qizlar» to'garagi a'zolari sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ma'naviy-ma'rifiy chiqishlari bilan o'quvchilar olqishiga sazovor bo'ldilar.

Uchrashuv yakunida maktab-internatimiz direktori Muharramxon Oripova so'zga chiqib, bunday uchrashuvlarning ahamiyati haqida gapirdilar.

Maftuna AKBAROVA, Farg'ona viloyati, Uchko'priq tumani

ZAVQLI O'TMOQDA

Maktabimiz kutubxonachisi Gulbegim opa Shodiyeva ta'tilda ham bizni iliq qarshi o'layptilar. Qo'shni bolalar bilan har kuni u yerda borib, kitoblar mutolaa qilyapmiz. Shu kungacha men Shamsiddin Sadoiyning «Davlatning borida», Erkin Vohidovning «Umrin daryosi» she'riy to'plamini, Xudoyberdi To'xtaboyevning bir necha asarlarini, ustozim Dilshod Rajabning qiziqarli she'rlarini o'qib chiqdim. Shuningdek, dugonam Yulduzxon, singillarim Maftuna, Sevinch, ukam Otajon, Diyorbek bilan ingliz tili to'garagiga qatnashmoqdamiz. Ustozlarimiz Dildora opa Bozorova, Gulnora opa Ravshanova bizga rasmlar orqali va o'yin tarzida til o'rgatishmoqda.

O'qigan kitoblarim ilhom bag'ishlab, sevimli gazetamga xat yozdim. Fursatdan foydalanib, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 283-maktabda ona tili va adabiyotdan dars berib kelayotgan aziz ustozim Muhiba opa Rajabovaga ham minnatdorchilik bildirmoqchiman. Ular mening ilk she'riy mashqlarimni tumanimiz gazetasida chop etilishiga sababchi bo'lganlar. «Tong yulduzi» gazetasini ham ustozim tanitganlar. Kitobni qadrlashni o'rgatgan o'qituvchilarim Saodat opa Ismatova, Baxshanda Boltayevadan ham minnatdorman.

Iroda HOJIYEVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 10-maktab o'quvchisi

BOLAJONLARNING SEVIMLI MASKANI

So'lim Farg'onada bir-biridan xushmanzara oromgohlar talaygina. Ulardan biri Quvasoy shahridagi Qo'chqorchi qishlog'ida joylashgan «Farg'onaoz» ochiq aksiyadorlik jamiyati tasarrufidagi «Kimyogar» bolalar sog'lomlashtirish oromgohidir.

— Oromgohimiz yilgi mavsumda korxonada ishchi va xizmatchilarning 1200 dan ziyod farzandlarini o'z bag'riga oldi. 20 nafar malakali pedagog-murabbiy, tarbiyachilar bolalar qoshida parvona, — deydi oromgoh rahbari Zokirjon Umarov.

Farg'ona tumanining Xonqiz qishlog'ida joylashgan «Tong» oromgohida ham bolalarning ko'ngildagidek dam olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Jumladan, ikkala oromgohda ham bolalar uchun tasviriy

san'at, raqs, mohir qo'llar, kompyuter savodxonligi, foto kabi to'garaklar, sportning tennis, shaxmat, shaxsha, voleybol, basketbol, futbol, yengil atletika kabi seksiyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Oromgohda har kuni qiziqarli, ma'naviy-ma'rifiy va ko'ngilochar tadbirlar, musiqali kechalar, sport musobaqalari o'tkazilmoqda. Ziyoratgoh va qadamjolar, xushmanzara, bahavo tabiat qo'yniga sayohatlar uyushtirilmoqda. «Kimyogar» va «Nefchi» madaniyat saroylari qoshidagi qo'g'irchoq teatri va raqs dastalari qatnashchilari dam oluvchilarga tez-tez tomoshalar ko'rsatishmoqda.

Muhammadjon MAHMUDOV, Marg'ilon shahri



«HUMO»DA ZERIKMAYMIZ

Maktabimiz qoshida tashkil etilgan «Humo» nomli kunduzgi oromgohda bugungi kunda 60 nafardan ziyod o'quvchilar hordiq chiqarishmoqda. Sport to'garagi, mazmunli kitoblar bilan boyitilgan kutubxona, turli to'garaklar, o'yin maydonlari-yu kattakon hovuz ixtiyorimizda. Maktabimiz rahbari Z. Sarimsoqova, oromgoh rahbari N. Teshayev boshchiligida yaqinda «Bo'g'irsoq» ertagini sahnalashtirdik. Sahna ko'rinishi yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Oromgohimizda bunday tadbirlar har kuni o'tkaziladi. Shuning uchun ham bu yerda sira zerikmaymiz.

Surayo KARIMOVA, Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 10-maktab o'quvchisi

OROMGONDAN QOLISHMAYDI

Bu yilgi ta'tilni har yilgidan o'zgacha, esda qolarli tarzda o'tkazish uchun turli rejalar tuzib qo'yg'an edim. Biroq, onam: «Yur, bobongdan xabar olib kelaylik. Bog'da ham turli mevalar pishibdi, terib kelamiz», deya qo'yarda-qo'yam qishloqqa olib ketdilar. Dugonalarim bilan oromgohga bormoqchi edim, rejalarimni yo'qqa chiqardingiz, deya onamdan biroz xafa bo'ldim. Qishloqqa kelgach esa bu yerning oromgohdan sira qolishmasligiga amin bo'ldim.

Tabiati go'zal, betakror, havosi musaffo. Tongda qirga chiqib, qo'ylarni o'tlatdik, bog'da g'arq pishgan mevalardan terdik. Tunlari bobom

qiziq-qiziq hikoyalar aytib berdilar. Men esa yulduz to'la osmonga boqib yotib, ularni miriqib tingladim. Yaxshiyam qishloqqa kelibman, deya rosa quvondim, ko'plab do'stlar orttirdim.

Boboming aytishicha, daraxtlarning ham yuragi, qulog'i, ko'zi bo'lar ekan. Ularni sug'orib, tagini yumshatsak, quvonib ketib bizni duo qilar, aksincha, shoxlarini sindirsak, barglarini ussak, tanasini o'yib, turli so'zlar yozsak, ranjib, qurib qolar ekan.

Yana bobom qiziq bir voqeani aytib berdilar. Ilgari bog'ga qarash uchun qo'shni qishloqdan bir bog'bon kelgan ekan. U kishi o'ta badjahl, qahri qattiq bo'lib, daraxtlarga zarracha shafqat qilmasa ekan.

Bir kuni bog'bon bobomni chaqirib: — Mana bu xurmo daraxti hosil bermaydi. Kesib tashlab, o'rni yangisini ekamiz, — debdi.

Bobom daraxtni kesishga rozi bo'lmabdilar.

Ertasiga bog'bon amaki xastalanib, yotib qolibdi. Shunda bobom uni ko'rgani boribdilar. To'shakka mixlanib yotgan amaki: «Tuni bilan tushlarimga o'sha xurmo daraxtining qurib qolgan holati kirib, bezovta bo'lib chiqdim. Ertalab esa hech o'rnimdan qo'zg'alolmadim, vujudim go'yo o'zimga bo'ysunmayotgandek bo'ldi», debdi.

Bu gapni eshitgan bobom bog'bon daraxtni ranjitgani uchun betob bo'lib qolibdi-da, deya xulosa chiqaribdilar. Bobomning hikoyasini tinglagandan so'ng, men ham tabiatga o'zgacha mehr, hurmat bilan qarashni, unda unib-o'sayotgan har bir niholga, g'iyohga nisbatan e'tiborli bo'lishni o'rgandim. Xullas, qishloqda o'tkazgan kunlarim qiziqarli voqealarga boy tarzda xotiramda muhrlandi.

NIGORA

OTAMNING TILAGI

Haqiqat egilar, bukilar, sinmas,
Qara chumoliga, erta-kech tinmas,
Yaxshining ko'ngliga shubha ilinmas,
Haqiqat yo'lidan borgan, sen qizim.

O'z kuchingga ishon, halol yashay bil,
Oldingga maqsad qo'y va unga intil,
Ushbu so'zlarimni qulog'ingga il,
Matonat yo'lidan borgan, sen qizim.

Bekorning ko'chasiga zinhor bo'ylama,
Vaqtini tejay bil, g'iybat so'ylama,
Ko'pning tashvishin qil, o'zing o'ylama,
Sadoqat yo'lidan borgan, sen qizim.

Mol-mulkka intilma, o'tkinchi bari,
Savob bilan to'lsin umring daftari,
Sendan rizo bo'lsin ham yosh-u qari,
Adolat yo'lidan borgan, sen qizim.



Durdona MUXTOROVA,
O'zDJTU talabasi

Shunday kunlarning birida Arslonni qishlog'imizda bo'lib o'tadigan kichikroq davradagi itlar jangiga olib bordim. Nosir akening Olapari odatdagidek hech bir itga davra bermay, kerilib turgan ekan. Shahob birdan menga gap tashlab qoldi:

ortiga qaytdi. Bu uning urishishga majoli yo'qligini ko'rsatardi.

Davrani olqishlovchi «qiy-chuv» tutib ketdi. Nosir akening esa «Olapar, senga nima bo'ldi?» deya itini silkilashdan bo'lak iloji qolmadi. Bu jangsiz g'alaba Arslonning muvaffaqiyati edi.

– Shu Olaparga Arslonningni bir qo'yib ko'rsang-chi...

Ertaga «So'nggi qo'ng'iroq» degan kuni sinfdoshlarim bilan bayram rejasini gaplashib kelayotkani, o'zimiz tengi bir begona bola yonimga kelib, qandaydir qog'ozchani tutqazdi:

– Ey, qanaqasiga? Hali uni hech qanday olishuvga qo'yganim yo'q-ku. Arslon hali itlar bilan jang qilmagan, tajribasiz. Hozir shunchaki tomoshaga olib chiqdim, – deya Shahobga o'dag'aylab tursam, tepamizda qaydandir Nosir aka paydo bo'ldi-yu, doimgi kerilishini boshladi:

– G'urjublik Sobir itboz bervordi, senga emish.

Vaziyatni anglab yetgan Shahob qo'limdagi qog'ozchani yulqib oldi-yu, undagi yozuvlarni o'qiy boshladi: «Bomba Arslonni jangga chaqiradi».

– Ha, nima, qo'rqayptilarmi? Yoki kuchuk deb pishak boqib yuribsanmi? Anavi g'urjublikning laychasiga yutqazib qo'ydi-ku, deb o'ylama! Gapning ochig'i, o'sha kuni Olaparning asabi sal chatoqroq edi, shunga. Olib chiq kuchukvachchangni. Hozir uni yengsin, erta-indin anavi Bomba deganlariniyam

– Nima, jangga?! – birdan o'sha kungi kallasi katta Bomba ko'z oldimda gavdalandi.



ARSLON

(Hikoya)

Uning qarshisiga Arslonni xayolan qo'yib ko'rdim. «Bu mumkin emas. Axir Arslon undan har tomonlama kichik va tajribasiz». Bu jangga chaqiruv ohangidan g'alati bo'lib ketdim. Lekin javob aytish kerak. Elchi bolaga yuzlandim-u, asabiy g'oldiradim:

yer tishlatadi Olapar, ko'rsanlar.

Uning gapidan jahlim chiqib ketdi. Shart buriilib, Arslonning qulog'iga shivirladim:

– Borib ayt, boraman. Aniqrog'i, boramiz.

– Pahlavonim, mahmadonalarga bir o'zingni ko'rsat!

Shahob, Uchqun, Orif birvarakayiga qichqirdi:

Shunday deyishim bilan Arslon asabiy irillagancha davrning o'rtasiga chiqib oldi. Bir chetdan vajohatli Olapar ham ko'rindi. Uning shashti past, ohista qadam tashlardi. Go'yo bu azobli o'yinlardan charchagandek Arslonga qarab bir-ikki qadam tashladi-yu, taqqa to'xtadi. Arslon esa irillagancha raqibidan ko'z uzmay turaverdi. Bir muddatlik sukutdan so'ng Olapar egasiga ilkis nazar tashlab,

– Nima?!

Men ularga quloq solmay ketaverdim. Orqamdan kesatq va dashnomlar eshitilib turdi:

– Qari Olaparni jangsiz yengganiga bu kishim kuchugini o'q o'tmas terminator deb o'ylayaptilarmi, deymen?!

– Bombani ko'rganmisan o'zi?! U Arslonningga qo'shib seni ham portlatib yubormasin tag'in...

HAYVONOT BOG'IDA



Rahmim keldi qafasdagi qushni ko'rib,
Bolakaylar nima sepsa, yeydi terib.
Bir kichkina qoya toshda hurpaygancha,
Burgut turar, yurolmaydi ko'ksin kerib.
Sher bolasi suvratkashga xizmat qilar,
Kim tortqilar, kimdir silab izzat qilar.
O'rmon shoxi o'kiradi, rangi sariq.

Bedanalar qolib sirtlon yeydi tariq.
Cheksiz o'rmon kirar Filning tushlariga,
Osmon orzu, sim to'rdagi qushlariga.
Asli maktab shu hayvonot bog'i bizga,
Shukr deymen ko'rgan yorug' kunimizga.
Ayirmasin deymen ona Vatanimdan,
Ko'z tegmasin bizning go'zal yurtimizga!

Dilsora USMONOVA

Shu kundan boshlab mol boqishga ham chiqmay qo'ydim. Faqat Arslonga termilib o'tirganim-o'tirgan. Tishlarini tekshiraman. Allaqachon bitib ketgan bo'lsa-da, dumi-yu quloqlarining kesilgan joylarini yana bir bor qo'lim bilan siqib ko'raman. Panjalari katta, ko'kragi keng. Eng muhimi, doimo ziyrak, nima desam, tezda ilg'ab oladi.



Sarvar FARMONOV chizgan rasmlar

Olishuv kuni keldi. Maydonga kechroq yetib bordim. Odamlar juda ko'p. Birinchi bo'lib yonimga Sobir itboz yaqinlashdi:

– Keshan-da baribir. Ofarin, ofarin! Ho, kuchuging ham chakkimas. Lekin uni jangdan so'ng ko'tarib ketishga zambil olib kel-

mabsan-ku. Yo

shu yerning o'ziga ko'mib...

Jahlim chiqqanidan qulog'im-gacha qizarib ketganimni o'zim ham sezdim. So'kinishga og'iz juftlagan edim hamki, Yoqub kalning do'rildoq ovozi eshitilib qoldi:

yerga cho'nqayib o'tirib olgan Arslonning ustiga o'zini otdi. Kuchugimning befarqligidan jahlim chiqib, «Arslon, ehtiyot bo'l» deyishim bilan u o'zini shartta pastga tashladi va yerga qapishib oldi. Katta kuch bilan uchib kelayotgan Bomba raqibining bunday harakatini kutmagan edi. Tezligining kuchi bilan narigi tomonga ag'anab tushdi-yu, tezda o'zini o'nglab olish uchun boshini keskin ko'tardi. Shuni kutib turgan Arslon uning bo'yninga o'tkir tishlarini botirgancha raqibining boshini yerga bosib turaverdi. Men esa itimning bunday aniq jang uslubini qanday o'zlashtirganiga hayron edim. Qolaversa, uni bunday vajohatli tusda birinchi bor ko'rayotgandim. Shu zaylda to'rt-besh daqiqacha vaqt o'tdi. Tobora nafasi bo'g'ilib borayotgan Bombaning xirillashga o'xshash chiyildoq ovozi eshitildi. Bu uning mag'lubiyati haqida egasiga berayotgan xabari edi...

– Bo'ldi, itlarni davraga olib chiqinglar. Orani kengaytiringlar, orqaga yana bir qadamdan surilinglar.

Fursatdan foydalanib, Arslonning qulog'iga engashdim:


– Arslon, bu oxirigisi. Boshqa seni bunday joylarga olib kelmayman. Chin so'zim. Lekin hozir anavi Bomba deganlarini yengish kerak. Quloq sol, u to'satdan hujum qilib, ho'kizdek gavdasi bilan raqibini yiqitib olishga usta. Sen bu hujumga chap berib, o'zing qayta hujumga o'ta olsang bas, g'alaba seniki.

Arslon gapimni tushungandek ingichka ovozdagi g'ingshib qo'ydi. So'ngra, birinchi bo'lib davra o'rtasini egalladi. Qarama-qarshi tomondan Bomba ham ko'rindi. Ohista kelayotgan it odatiy jang uslubiga ko'ra zumda tezligini oshirdi va

(Tamom)

Farhod ESHMO'MINOV

HAR KUNI XUSHXABAR



Istiqlol bergan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan umidli yoshlarimiz nafaqat yurtimiz, balki xalqaro miqyosdagi tanlov va musobaqalarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, yurtimiz dovrug'ini dunyoga taratib kelmoqdalar. Ayniqsa, sport sohasida har kuni bir necha xushxabar!

Kuni kecha Turkiyada futbol bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida ishtirok etgan O'zbekiston yoshlar terma jamoasi sayyoramizning kuchli sakkiz jamoasi qatoridan o'rin oldi. Futbolchilarimizga yuklatilgan minimal vazifa - chorak final yo'llanmasi qo'lga kiritilgani o'zbek futbolidagi yorqin natija sifatida tarixda qoladigan bo'ldi.

Shuningdek, Yevroosiyo kubogi ochiq chempionatida O'zbekiston penchak silat terma jamoasi qozongan g'alaba ham barchamizni quvontirdi. Yoshlarimizning ushbu sport turi bilan shug'ullanayotganlariga ko'p vaqt bo'lmasa-da, turli vazn toifasida o'nta oltin va ikkita kumush medalni qo'lga kiritishdi.

Hamyurtlarimiz g'alabalarini sanashda davom etganimiz sari qalbimizni allanechuk faxr va iftixor tuyg'ulari chulg'ab olyapti. Jumladan, umidli, yosh taekvandochilarimiz Malayziyada turli

yoshdagi sportchilar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida umumjamoa hisobida faxrli 1-o'rinni egallashdi. Iordaniyada kechgan boks bo'yicha Osiyo chempionatida esa yurtdoshlarimiz bitta oltin, ikkita kumush va bitta bronza medal jamg'arishga muvaffaq bo'ldilar. Yagona bronza medalni o'smirlar o'rtasida jahon chempioni Mirzobek Hasanov 91 kg vazn toifasida qo'lga kiritdi. «Qozon - 2013» sport musobaqalarida esa o'zbekistonlik sportchilar orasida birinchi oltin medalga iqtidorli yosh bokschimiz Hasanboy Do'smatov sazovor bo'ldi. Ikkinchi oltin medalni qo'lga kiritgan og'ir atletikachimiz Ruslan Nuriddinov esa Jahon universiadasida rekordini yangiladi.

Ushbu xabarlarini jamlar ekanimiz, yana bir xushxabarni eshitib, sizga ilindik. Zero, Janubiy Koreyada taekvandoning WTF yo'nalishi bo'yicha tashkil etilgan «Chun-Chon Oupen -

2013» xalqaro turniridagi muvaffaqiyatlarimiz ham maqtanishga arzigulik. Ushbu musobaqaning o'smirlar o'rtasidagi bellashuvlarida vakillarimizdan Umida Abdullayeva, Nigora Tursunqulova, Niyoz Po'latov oltin, Ra'no Boybo'tayeva, Mehroj Jabborov, Ruslan Shin, G'anijon Hurliboyev bronza medalni qo'lga kiritishdi.

Olti yoshdan o'n yoshgacha bo'lgan taekvandochilar bahsida esa Yosinxo'ja Ziyovuddinov, Abbas Aliqulov, Madina Ro'ziyeva, Nurlan Boyxo'jayev va Javlonbek Rustamov xalqaro turnirning oltin medallariga sazovor bo'ldilar.

Qadr-qimmatimiz, tayanch va iftixorimizga aylangan Vatanimiz dovrug'ini dunyoga taratish va unga munosib farzand bo'lish shu yurtning har bir o'g'il-qiziga nasib etsin!

Sayyora QODIROVA



FUTBOL

«Kamolot» YOIH tashabbusi bilan «Yosh kuch» sport o'yingohida akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilari o'rtasida «Kamolot» kubogi Respublika turmirning viloyat bosqichi yakunlandi.

Unda Namangan ijtimoiy-iqtisodiyot va pedagogika kolleji, Mingbuloq maktabgacha ta'lim va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji, Oygiron xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji o'quvchilaridan iborat jamoalar g'oliblik uchun kurash olib bordilar. Yakuniy natijaga ko'ra Mingbuloq maktabgacha ta'lim va xizmat ko'rsatish kolleji jamoasi kubokni qo'lga kiritdi.

Shuningdek, faol ishtirok etgan bir qator yoshlar «Eng yaxshi hujumchi», «Eng yaxshi darvozabon», «Eng yaxshi himoyachi» kabi nominatsiyalar bo'yicha munosib taqdirlandilar.

SPORT BILAN KOMILLIK SARI

Salomatlik har qanday boylikdan ustunligini bilasiz-a? Sport bilan muntazam shug'ullanish esa kishini jismonan hamda ruhan chiniqtiradi. Shu maqsadda Namanganda yoshlar o'rtasida turli sport musobaqalari o'tkazib kelinmoqda.

SHAXMAT

Tafakkur va aql-idrokni charxlashda shaxmatga teng keladigani yo'q.

«Kamolot» shaxmat taxtasi»

Respublika turmirning viloyat bosqichida ham 61 nafar o'quvchi-yoshlar aql sinashdilar. Ikki guruhga bo'lingan holda o'tkazilgan musobaqada 6-12 yoshli o'quvchilar o'rtasida Muhammadsodiq Nabijonov, Ibrohim Rahimjonov, Oydina G'aniyeva, 13-16 yoshlilardan Hoshimjon Ergashev, Shahboz Ubaydullayev, Maftuna Usmonova, 16-19 yoshli o'quvchilardan Ibrohim Parpiyoyev, Munira Mutalliyeva, Madina Usmonova birinchi o'rinni qo'lga kiritib, keyingi bosqichga yo'llanma oldilar.

Kamola NOSIROVA



OMAD KULAR

Sport - xalqlarga tilmoch,
U yurtlarni do'st qilar.
Bellashganda, yoy quloq,
Vatan seni mard bilar!

Sarf etib bor kuchingni,
Yurt bayrog'in hilpirat.
Dildan bajar burchingni,
G'alaba bo'lsin faqat.

Millionlab muxlislaring,
Senga tikib turar ko'z.
Hatollik bilan kurash,
Mahorating qil ko'z-ko'z.

Sport - xalqlarga tilmoch,
Ellar bir-birin bilar.
Sen sportga quchoq och,
Shunda omading kular.

Bahrom TOJIYEV

Fidoi ustozlarimiz uchun shogirdining kamoli, yulug'idan-da ortiqroq baxt yo'q. Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 26-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Parizod Ibragimovaning shogirdi — 5-sinf o'quvchisi Gulyuz Hamroqulova haqida mehri bilan aytilgan shu gaplarini tinglab, bu fikrning nachog'li o'rinli ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik.



SAODAT o'lgan surat

GULYUZ

ko'ziga chiroyli ko'ringan manzaralar tasvirini aks ettirishga harakat qiladi. Bu havas uni maktabi qoshidagi «Tasviriy san'at» to'garagiga yetakladi. Hozirda ustoz O'g'lioy Soliyevadan musavvirlikning siru sinoatlarini o'rganib kelayapti. Shuningdek, tikish-bichish, rus tili, qo'g'irchoq teatri to'garaklariga ham muntazam qatnaydi. Oyijonining eng yaqin dastoyri. Uy yumushlariga ko'maklashadi, hovlidagi gullarni parvarishlaydi. Qo'li bo'shadif deguncha, opasidan ingliz tilidan saboq oladi.

Ayni kunlarda Yangibozor tumanidagi 3-maktabgacha tarbiya muassasasi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan rassomlik to'garagiga qatnab, ustoz Mardona opadan saboq olayotgan iqtidorli qizimiz ko'plab ko'rik-tanlovlarda qatnashib, sovrinlarni qo'lga kiritayapti. Bunday rag'bat va e'tibordan ruhlanib, o'z ustida yanada ko'proq

ishlashga, ijod qilishga, malakasini oshirishga intilyapti. Bu tirishqoq tengdoshingizni ta'til kunlarida ham ko'proq maktabda uchratasiz. Ustoz O'g'lioy opa boshchiligidagi maktab qoshidagi kunduzgi oromgohda dam olayotgan o'g'il-qizlarga «Bichish-tikish» to'garagida o'z qo'llari bilan yasagan, liboslarini tikkan qo'g'irchoqlari yordamida «Zumrad va Qimmat», «Laylak va chob», «Ur to'qmoq» ertaklari asosida tomoshalar ko'rsatishyapti.



Jussasi kichikkina Gulyuzning orzulari juda katta: mohir musavvir bo'lib, O'zbekistonimizning go'zal, betakror manzaralarini, samimiy insonlari siyosini o'z rasmlarida aks ettirib, xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etishni niyat qiladi. Biz ham uning beg'ubor orzulari ijobat bo'lishiga tilakdoshmiz.

M.YUSUPOV



— Gulyuz eng a'lochi, faol o'quvchilarimdan. Barcha fanlarni a'loqa o'zlashtiradi, rasm chizishda uning oldiga tushadigani yo'q. Maktabda o'tkaziladigan barcha tadbir va musobaqalarda faol ishtirok etadi.

«Faxriy yorliq»lari ham talaygina...

Darhaqiqat, Gulyuzning tasviriy san'atga mehri bo'lakcha. Rassom opasiga havas qilib, juda kichikligidanoq

Keling, ertak o'qiymiz!

MEHNAT BAXT KELTIRAR



Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda chekka qishloqda bir dehqon ikki nafar o'g'li bilan yashar ekan. Ularning yilqilari-yu qo'y-qo'zilar biyor ekan. Bir kuni dehqon o'g'il-larini sinash maqsadida yoniga chaqiribdi va:

— Bolalarim, men uzoq safarga ketyapman. Mana bu tangalarni oling va men kelgunga qadar ularni ishlatib, tirikchiligingizga yarating, — debdi va har ikkisiga 10 tangadan pul beribdi.

Ertasi kuni bolalarning otasi uzoq

safarga ketibdi. Kichik o'g'il berilgan pullarni behuda sarflab, vaqtini bekorchilikda o'tkazibdi. Katta o'g'il esa pullarni bir joyga berkitib, o'zi dalaga ishlashga chiqib ketibdi. Otlarni keng dalaga yoyib, yerga don sochibdi. Mevali daraxtlar ekib, bog' yaratibdi.

Otlari, qo'yilari ko'payaveribdi. Aka esa ularning bir qismini sotib, pullarini otasi bergan tangalarga qo'shib boraveribdi.

Shunday kunlarning birida uka akasiga:

— Akajon, hademay otam safardan qaytadi. Men pullarimning barini ishlatib yubordim. Iltimos, menga ozroq qarz berib turing, otamning oldida yuzim shuvut bo'lmasin, — debdi.

— Yo'q, — debdi aka. — Men bilan tengma-teng mehnat qilsang, pulingga pul, kuchingga kuch qo'shiladi, — debdi. Uka biroq erkarog' o'sgani uchun ham qo'llari ketmon ushlashga kelishmabdi, ammo akasi uni sabr bilan mehnat qilishga o'rgatibdi.

Oradan ko'p o'tmay aka-ukalar dalani yashnatib yuborishibdi. Bu orada ota ham safardan qaytibdi va xirmon-xirmon qilib uyulgan donlarni, otar-otar qo'yilarni, yilqilarni ko'rib, ko'zlari quvna ketibdi. Farzandlar otasining sog'-omon qaytganidan xursand bo'lishibdi.

Dehqon bobo kech kuzda hosilning qolgan qismini ham yig'ishtirib olgach, butun qishloqqa uch kecha-yu uch kunduz to'y berib, o'g'illarini uylantiribdi.

Mehnat baxt keltirar, deb shunga aytalar kerak-da.

Shahzodabonu SHOBONOVA,
Xorazm viloyati, Urganch
shahridagi 5-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

Aziz qizlar-
jon! Yoz kunlari-
da chanqovbosdi ichimlik-
larga tez-tez ehtiyoj
seziladi-a? Kimdir yaxna
gazli ichimliklar ichishni, yana kimdir
muzdekkina muzqaymoq yeyishni-kush
ko'radi. Lekin o'z qo'llaringiz bilan
tayyorlagan chanqovbosdi ichimlik-
ning ta'miga nima yetsin?! Bugun siz-
larga tavsiya qilayotgan yaxna koktey-
limizni o'zingiz tayyorlab ko'ring,
mazasi og'zingizda qoladi.

«YOZ ROHATI» KOKTEYLI



Bu rohatijon ichimlikni tayyorlash uchun 120 gr bodring, 4 dona rediska, 100 gr yogurt, 1 piyola qatiq, ozroq shivit, tuyilgan qora murch kerak bo'ladi.

Tayyorlanishi: Bodring to'rtburchak shaklida to'g'raladi. Rediskalarning po'sti artiladi. Sabzavotlar blenderga solinib, pyure holatiga keltiriladi. So'ngra, qatiq va yogurt solib, bir xil massa hosil bo'lgunicha aralashiriladi. Kokteylga ta'bga ko'ra tuz, murch hamda shivit solib, muzlatgichda 15 daqiqa saqlanadi. Bu rohatijon kokteyl tanangizga huzur bag'ishlaydi.

NARGIZA tayyorladi

Ushbu sonda Respublika rassomlik kolleji o'quvchilari Zulayho MO'MINOVA, Mohira MUHAMMADJONOVA chizgan rasmlardan foydalanildi.

8

22-iyul 2013



Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqboy ERGASHEV,
Sobitxon TURGUNOV

Navbatchi
muharrir
Axtamqul
KARIMOV
Rassom
Feruza
MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin
ORIPOV
Musahhif
Nargiza
ABDULLAYEVA

Manzirimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 47763
Buyurtma N: J 7634

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi.
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.